

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI  
VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGLARNI  
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH  
MILLIY MARKAZI

MILLIY TA'LIM YARATILISHDA  
INNOVATSION YONDASHUVLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI

TO'PLAMI

Navoiy-2023

**UDK: 37.03.001.76 (075.3)****BBK: 74.26**

Milliy ta'lim yaratilishda innovatsion yondashuvlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PYMO‘MM nashri, 2023. 281 b.

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida tashkil etilgan “Milliy ta’lim yaratilishda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida uzlucksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o‘qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta’lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.*

*Konferentsiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilar, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.*

### **TAHRIR HAY’ATI**

<i>Ro‘ziqulov F.R.</i>	- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.
<i>Pulotov A.M.</i>	- pedagogika fanlari nomzodi. dotsent.
<i>Suvonov O.O.</i>	- texnika fanlari nomzodi, dotsent.
<i>Safarov D.X.</i>	- psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). dotsent.
<i>Shomiyev G‘.O‘.</i>	- iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.
<i>Pulatov J.N.</i>	- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). dotsent.
<i>Usmonova R.M.</i>	- dotsent.
<i>Boboqulov.J.Q.</i>	- UKTTE bo‘limi boshlig‘i.

Texnik muharrir:

Axmedov S.T.

**Maqolalar mazmuni va ma‘lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’ul.**

*Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati PYMO‘MM Ilmiy-metodik kengashi (2023-yil 30-may, 3/1 navbatdan tashqari) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

## KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum!

Aziz mehmonlar, anjuman ishtirokchilari! “Milliy ta’lim yaratilishda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi bugungi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida, (videokonferensiyada) Siz muhtaram mehmonlar, ilm-ma’rifat ahli bilan muloqotda bo‘lishni o‘ta mammuniyat bilan qabul qilaman.

Bugungi kunda dunyo taraqqiyotini ilm-fan va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev mamlakatimizdagi ijtimoiy jarayonlar haqida ishonchli axborot berish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etilmoqda, hayotimizdagi muammo va hodisalarga tezkor munosabat bildirilmoqda, ularning veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil missenjerlardagi sahifalari yangilab borilmoqda. Bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida yutuqlar bilan birga, kamchiliklar va nuqsonlar bo‘lishi ham tabiiydir. Jahonda shiddat bilan davom etayotgan globallashuv, inovatsion texnologik jarayonlarning murakkablashishi va tezlashishi natijasida axborot xurujlarining inson ruhiyatiga ta’sirining mohiyatini ochib berish, insondagi o‘ziga xos psixologik xususiyatlar rivojlanishini ob’ektiv aks ettirish muammosi yuzaga kelmoqda. Axborot xurujlari olam shaxsnинг psixologik, ijtimoiy, madaniy, axloqiy xususiyatlariga katta o‘zgarishlar olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan insoniyatning xususan, yoshlarning butun dunyo bo‘ylab duch keladigan asosiy muammolardan biri internetga tobelik bo‘lib, o‘z-o‘zidan yoshlarning kundalik turmush tarziga, kasbiy tayyorgarligi va kamolotiga sezilarli darajada salbiy ta’sirini oldini olish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Axborot texnologiyalardagi taraqqiyot yoshlarimizni, o‘sib kelayotgan avlod uchun yangi qirralarni ochilishiga imkon bersa-da, undan foydalanishning ham o‘ziga xos muammolari mavjud. Bolalar internetdan foydalana turib yovuz niyatli odamlarga duch kelib qolmoqdalar. Internetdagi noma’lum kishi bilan muloqot ishonchli va do‘stona munosabat o‘rnatishga imkon yaratadi. Jinoyatchi ushbu afzallikdan foydalangan holda tajribasiz yoshlarni o‘ziga bog‘lab olmoqda. Siz farzandingizni interetdagi xavfdan asray olasiz, qaysiki uni tarmoqdan qanday foydalanayotganligini nazorat qila olsangiz. Jinoyatchilar bolalar bilan chatda lahzali axborotlar almashtirishda, elektron pochta yoki forumlardan foydalanib aloqa o‘rnatish ustunligiga erishmoqda.

Bu esa, yoshlarda axborotni tahlil qilish kompetentsiyasini rivojlantirish va har qanday axborot xurujlariga qarshi kurashish ko‘nikmasini shakllantirish ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan fidokor ustozlarimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, keyingi vaqtarda mamlakatimizga nisbatan axborot-psixologik tahdidlar sodir etilmoqda. Xususan, ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o‘zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ko‘zlamoqda.

Pedagogik markazimizda amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy mazmuni bu - yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilinishini kuchaytirish, dars mashg‘ulotlari sifatini yuqori darajada ta’minlashhamda ilg‘or pedagogik

va axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini ko‘tarish, ta’lim ko‘rsatkichlari sifatini nazorat qilish tizimini uzlusiz takomillashtirish, ta’limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi darajasini ko‘tarish, mehnatga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirish va ijro intizomiga qat’iy rioya qilishni talab etadi.

“Milliy ta’lim yaratilishda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni maqsadi ilmiy izlanuvchilarning nazariy va amaliy tavsiyalarini, ta’lim jarayoniga xalqaro tajriba va innovatsiyalarni tadbiq etish, taklif va tavsiyalarni umumlashtirish, fanlarni o‘qitishda innovatsion-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, uzlusiz ta’limdagi mavjud uzviylikni takomillashtirishdan iboratdir.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Ta’lim tizimidagi innovatsion islohotlarga kreativ yondashuv, milliy ta’lim va uzlusiz malaka oshirishni hamkorlikda tashkil etishda mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish, xalq ta’limi muassasalarini dunyo reytingining yuqori pog‘onalarida turadigan ta’lim muassasalarini bilan raqobatlasha oladigan ta’lim dargohlariga aylantirish maqsad qilib qo‘yilgan. O‘ylaymanki, ushbu anjuman ham o‘ziga xos tarzda muayyan maqsadlarimizni amalga oshirish, innovatsion yondashuvlar milliy ta’lim tizimini takomillashtirishning zamonaviy tadqiqotlar asosidagi munozaralar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Qadrli anjuman ishtirokchilari va aziz mehmonlar!

Shu fursatdan foydalanib, anjumanda ishtirok etayotgan hurmatli professor-o‘qituvchilar, ustoz va murabbiylarga, ilmiy konferentsiyaga tashrif buyurganingiz uchun o‘z minnatdorchiligimni bildirgan holda, Sizlarga mustahkam sog‘lik, ilm-fan yo‘lidagi xayrli ishlaringizda omadlar tilayman. Anjumanni o‘z nufuzi jihatdan yuqori ilmiy saviyada samarali o‘tishiga tilakdoshman.

**F.R. Ro‘ziqulov**  
**Navoiy viloyati PYMO‘MM direktori**

bir pedagog, eng avvalo, o‘z ustida ishlashi, so‘ng yosh avlodni tarbiyalashda bor imkoniyatini ishgaga solishi, hamda istiqbolni shu tarbiyalaydigan yoshlar bilan ko‘ra olishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta‘lim texnologiyasi.– T.: O‘qituvchi, 2019.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. –T.: 2014.

## PEDAGOG FAOLIYATIDA PSIXOLOGIYANING O‘RNI

*Hakimova F.X.,  
BuxDU o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagog psixologlar faoliyatiga qo‘yiladigan talablar, psixologik kompitentlik yoritib berilgan. Bundan tashqari pedagog psixologlarning faoliyati to‘g‘risida g‘arb va sharq olimlarining ham ilmiy fikr va g‘oyalari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagog psixolog, motiv, psixologik kompitentlik, faoliyat, zamonaviy maktablar, jamiyat, mustaqil ta‘lim, pedagogik tajriba, intellektual qashshoqlik, malaka oshirish, umummadaniy axbarotlar.

**Аннотация:** В этой статье требования к деятельности учителей-психологов, психологическая комплексная компенсация. Кроме того, деятельность психологов учителей представлена научными идеями и представителями ученых.

**Ключевые слова:** психологи педагогики, мотив, психологическая композиция, деятельность, современные школы, общество, педагогический опыт, интеллектуальная бедность, продвинутая, обучение, обучение, обучение, усовершенствованные знания.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o‘qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati XXI asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o‘sib rivojlna boradi. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o‘rni beqiyosdir. Chunki har bir pedagog dars o‘tish jarayonida o‘quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzuni tushuntirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta‘limning sifatiga ijobiy ta’sir etadi. Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o‘z malakasini oshirib borishi bir tomonidan o‘qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomonidan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Psixologik nuqtayi nazardan o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z bilimlarini oshirish bilan shug‘ullanishi zarurdir. Chunki o‘qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog odamlarni ko‘pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o‘z qarashlari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o‘qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko‘p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o‘qituvchining o‘zi axborotlar olish uchun o‘quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o‘ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo‘lish imkoniyatiga ega boiib, ko‘pincha o‘z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi. Ta‘limning barcha ko‘rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta‘kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo‘lgan aniq ma’lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni, natijaga erishishga yordam beruvchi ma’lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o‘z-o‘zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bogliq. O‘qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o‘z

bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan toldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi. Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallah zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar «o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak?» degan xohish-istiklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi. Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, o'qituvchilar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o'qituvchilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar. Bu muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlarining tarmoqlari joriy etilgan, bular Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy instituti, Toshkent shahar, viloyatlardagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlaridir. Xalq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda o'qituvchi kadrlarning malakasini oshirish, O'qituvchi kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotini oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir. Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband «Chaqmoq tosh qo'limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin» deb ta'kidlaganlar. Bu fikr bilan u ijtimoiy tarbiyaning o'rniga ishora qiladi, to'g'ri tarbiyaning mohiyatini, uning samarasini aniq o'xshatishlar bilan asoslab beradi. Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan bir necha qimmatli asarlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo'lsa-da, o'z qimmatini yo'qotgan emas. Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko'rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin. O'qituvchiga nisbatan o'smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, A.Djersildning izlanishlariga binoan bolalar quyidagi xarakterga ega bo'lgan oqituvchilarni afzal hisoblar ekanlar:

- 1) mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiluvchi, barqaror insoniy sifatli;
- 2) haqiqatgo'y, batartib, halol, boshqalarni hurmatlovchi, tashkilotchilik sifatidagi;
- 3) boshqalar manfaatini o'ylaydigan, xalqparvar, sinf ishlarida o'quvchilarga erkinlik huquqini beruvchi, qiziquvchan, ishtiyoqli va ishchan;
- 4) yoqimli ovozli, umumiyoqimtoylig qiyofasidagi o'qituvchi.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyaning taraqqiyatining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934) SHarq tillari va adabiyotini yoshligidan chuqur o'rganib, u mumtoz o'zbek she'riyati ta'sirida she'rlar yozgan. Uzoq vaqt mobaynida Toshkent maktablarining birida bolalarga ta'lim bergan. Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldida ijtimoiy vazifalarini qo'ya

olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxsnинг rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi rolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarini ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani bilgan.

O'zbek ma'rifatparvarlarning yorqin vakili bo'lган Avloniy "to'g'ri" g'oyalarning kengaytirib va "noto'g'ri" g'oyalarni bartaraf qilibgina yovuzlikni yo'qotish mumkinligiga ishongan. SHuning uchun tarbiya mavzusi ma'rifat gazetasi bo'l mish "Shuhrat" gazetasida keng yoritilgan.

Mustamlaka Turkiston sharoitlarida matbuot cheklangan o'quvchilarga ega bo'lган, chunki aksariyat aholi savodsiz bo'lishgan. Bu holatda dramaturgiya ma'rifiy g'oyalarni tatbiq qilishning eng samarali usuli bo'lган. Teatr Avloniy uchun odamlarni tarbiyalash, birlashtirish vositasi bo'lган. 1913 yilda Toshkentda Avloniy "Turon" nomli teatr truppasini tashkil qildi. Truppening maqsad-vazifalari Toshkentdagи "Turon" dramatik san'at jamiyatining nizomida aniqlangan: "sahnaga nisbatan muhabbat va jiddiy munosabat tug'dirish, xalq uchun spektakllar tashkil qilish".

Bu maqsadga erishish uchun jamiyat kechalar, konsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy chiqishlarni tashkil etishga o'z nomiga klub va musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxona tashkil qilishga, boshlang'ich maktablar ochishga, ta'limni o'rta va oliy o'quv yurtlarida davom ettirish uchun stipendiyalar ta'sis etish huquqiga ega bo'lган. SHuningdek, u mavjud hayriya va ta'lim muassasalariga moddiy yordam ko'rsatishi mumkin.

Avloniyning ma'rifiy g'oyalari nafaqat ijodda ilgari surgan. U tomonidan 1908 yilda kambag'allar uchun muktab ochilgan va u yerda ona tilini o'qitishning yangi usullari qo'llanilgan. Pedagogik faoliyat bilan sermahsul shug'ullanishni kanda qilmay u darslik va qo'llanmalar yoza boshlagan. O'z vaqtida uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligi mashhur edi.

Avloniydan so'ng ma'rifatning va dunyoviy bilimlarning faol targ'ibchisi Miskin edi. Miskinning ta'lim va ma'rifiy qarashlari ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega edi va o'zbek ilg'or pedagogik g'oyalaring rivojiga katta hissa qo'shgan. Insonni reallikdan ajratib oluvchi va uni shukronalik ruhida tarbiyalovchi hukm surgan musulmon pedagogikasiga qarshi Miskin ta'lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish uchun tarbiyalash deb tushungan va o'z qarashini rivojlantirgan. Miskin va boshqa o'zbek ma'rifatparvarlarining intilishlari tarbiyaning ijtimoiy jihatini oshirishga, ijtimoiy tarbiyani kengaytirishga, insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishi, boshqa davlatlar va xalqlar hayotini o'rganishga qaratilgan edi. Biroq bu ijtimoiy xususiyatlar bilan birga o'zbek ma'rifatparvarlari XIX asr ikkinchi yarmida o'z qarashlarining ketma-ket emasligi, ularning feodal-mustamlaka tuzumga qarshi kurashdagi ojizliklarini keltirib chiqaruvchi mustahkam siyosiy dasturning yo'qligi bilan ajralib turardilar. Biroq ularning dunyoqarashining cheklanganligi va qarama-qarshiligiga qaramay ular O'zbekistonda ilg'or g'oyaning rivojiga o'z hissalarini qo'shishdi.

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan bunday misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, ta'lim va pedagog psixolog faoliyatiga qo'yiladigan talablar, o'quv faoliyati muammolar masalasiga Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyorilari alohida e'tibor bilan qaraganlar. Ularning asarlarida ta'lim muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, pedagog psixologlarning faoliyati va psixologik

kompetentliligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib o'tilgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Sh.M.Mirziyoyev "Milliy Taraqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz "(Toshkent Uzbekiston 2019y).
- 2.Sh.M.Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir"(Toshkent Uzbekiston 2018y)
- 3.Sh.R.Barotov Psixologik xizmat (Toshkent 2018y)
- 4.Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri.(Toshkent 1993)
- 5.M.Xolmatova Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. ( O'zbekiston 2002)
6. F.X.Hakimova Повышение благосостояния семьи как фактор развития экономического воспитания Science and Education 3 (4)
7. F.X.Hakimova Психические и эмоциональные состояния у детей вестник 23 (79), 358-361
- 8.E.G'oziyev Yosh davrlar psixologiyasi (Toshkent 2010 y)
9. Sh.R.Barotov Psixologik xizmat (Toshkent 2018y)

## BOLALARDA JINOIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Berdiyeva D.R.,*

*Xatirchi tuman 57-umumiy o'rta ta'slim maktabi psixologi*

**Annotation:** Ushbu maqolada Jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'lувчи biologik va ijtimoiy-psixologik omillarni to'g'ri anglash hamda har tomonlama o'rganish jinoyatchi psixologiyasini, uni jinoyatga undagan ehtiyojlar, motivlar va boshqalarni anglash kabi fikrlari ochib berilgan

**Аннотация:** В данной статье дается комплексное представление о биологических и социально-психологических факторах, способствующих формированию преступного поведения, а также комплексное изучение психологии преступника, его потребностей, мотивов и т.д.

**Annotation:** This article provides a comprehensive understanding of the biological and socio-psychological factors that contribute to the formation of criminal behavior, as well as a comprehensive study of the psychology of the offender, his needs, motives, etc.

Jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'lувчи biologik (irsiy) va ijtimoiy-psixologik omillarni to'g'ri anglash hamda har tomonlama o'rganish jinoyatchi psixologiyasini, uni jinoyatga undagan ehtiyojlar, motivlar va boshqalarni anglashga yordam beradi.

Mamlakatimizda o'tkazilgan tadqiqotlardan birining natijasiga ko'ra, jinoyat sodir etgan bolalarning oilalari o'rganilganda quyidagilar aniqlangan:

Oilada tarbiyaviy ta'sir vositalarining noto'g'ri qo'llanilishi;

Bolalarning ota-onalar, mакtab, mahalla nazoratidan chetda qolganligi;

Oilasidagi ma'naviy muhit nosog'lom va noto'liq oilalar.

Ko'p hollarda jinoyat sodir etgan shaxslar o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitga moslasha olmagan bo'ladi, buning asosiya sababi esa o'z-o'zini boshqarishning buzilishi bilan bog'liqidir. O'z-o'zini boshqaruvning buzilishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, asab va psixologik tez, kuchli toliqish natijasida tashqi ta'sirlarga haddan ziyod e'tibor berish.

<b>Исламова Д.И.</b>	Оилавий муносабатларда эмоционал зўриқишларни коррекциялашнинг эмпирик тадқиқ этилиши	179
<b>Numonova D.U., Nazarova M.A.</b>	Talabalarda ma'naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish masalasi	182
<b>Numonova D.U., Ruzimurotova U.X., Xamdamova Z.X.</b>	Dars – o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish vositasi sifatida	185
<b>Narzieva M.</b>	Globallashuv sharoitida bolalarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati	189
<b>Asatova D.A.</b>	Ta’limda talabalarda rahbarlik sifatlarini rivojlantirishning o‘rni	191
<b>Kozimova D.</b>	Zamonaviy o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro munosabatlar	193
<b>Мансурова С.Р.</b>	Мактабгача ёшдаги болаларнинг гендер фарқлари ва ўзига хосликларини инобатга олиб ўқитиш: муаммо ва ечимлари	196
<b>Bobomurodova S.A.</b>	Ilk bolalik davridagi psixik o‘sish	203
<b>Faragatova M.T.</b>	Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari	204
<b>Shavqiyeva Ch.B.</b>	O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirishda zamonaviy ta’lim metodlarining ahamiyati	206
<b>Negmatova D.A.</b>	Bola tarbiyasida milliy qadriyatlarning ahamiyati	210
<b>Jumayeva G.J.</b>	Oilada yoshlar mehnat orqali estetik tarbiyalash	212
<b>Hamidova Z.I.</b>	O‘quvchi qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	213
<b>Ro‘ziyeva M.A.</b>	Umumiy o‘rta ta’lim fanlarini o‘qitishda “ustoz – shogird” xarakterni isloh qilish	215
<b>Xo‘jamova M.A.</b>	Pedagog-xodimlarning boshqaruvsda psixologik ijodiy faoliyati	217
<b>Niyozova M.I.</b>	Kasb tanlashda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning o‘rni	219
<b>Abduraxmonova Z.A.</b>	O‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini samarali tashkil etish	223
<b>Rustamova N.</b>	Maktab jamoasida sog‘lom psixologik muhit yaratish	226

## **5-SHO‘BA: TA’LIMDA AQLIY RESURSGA AHAMIYAT, BAHOLASH VA SIFAT KO‘RSATKICHI MASALALARI**

<b>Qosimov U.A.</b>	Til o‘rganishda neyrolingvistik dasturlash imkoniyatlaridan samarali foydalanish	228
<b>Turaxonov A.E.</b>	Innovatsion rahbar faoliyatida boshqaruvi malakalari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosliklari	229
<b>Pulatov J.N.</b>	Inson barqaror taraqqiyotining muhim omillari va ularning ahamiyati	232
<b>Elov Z.S.</b>	Psychological mechanisms of determining and correlating motivation for suicidal tendencies in adolescents with deviant behavior	236

<b>Barotova D.</b>	Pedagog shaxsidagi kasbiy muhim sifatlarning xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilishi	239
<b>Murodova Sh.</b>	Bolalarni mакtabga tayyorlashda pedagogik-psixologik treninglarning roli	242
<b>Tурахонов А.Э.</b>	Научные традиции изучения управлеченческих качеств руководителя образования	244
<b>Xasanova Sh.B.</b>	Biologiya darslarida o‘quvchilarni pisa tadqiqotlariga tayyorlash	246
<b>Qurbanova X.T.</b>	Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash	249
<b>Bekmurodov B.A.</b>	Boshqaruv hislatlari to‘g‘risida o‘rta asrlarda sharq qomusiy olimlarining qarashlari	251
<b>Mirzaeva K.N.</b>	Human resource management in education: issues and challenges	254
<b>Умнова М.К.</b>	Теоретические аспекты развития познавательных интересов учащихся начальных классов	256
<b>Abenova K.</b>	O‘quvchilarda kasb tanlash muammosi	259
<b>Ro‘ziyeva Sh.R.</b>	Pedagog(tarbiyachi) psixoemotsional zo‘riqishini bartaraf qilishda autogen mashqlarining roli	260
<b>Shoymardonova H.</b>	Bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlar va agressiyaning namoyon bo‘lishiga psixologik yondashuv	262
<b>Sultonova S.Sh.</b>	Yoshlarni tarbiyalashda sog‘lom g‘oyalarni singdirishning omillari va o‘rni	263
<b>Pirnafasov M.</b>	Bola intellektual taraqqiyotida amaliy psixologik usullardan foydalanishning o`ziga xos jihatlari	265
<b>Bobomurodova S.A.</b>	Inson shaxsini kamol topishida sharq mutafakkirlarining qarashlari	267
<b>Abdullahayeva G.Yu.</b>	Maktab faoliyatida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik va pedagogik munosabat	269
<b>Ergasheva H.S.</b>	Burhoniddin Marg‘inoniy diniy-falsafiy qarashlarida tarbiya masalalari	271
<b>Rasulova Sh.</b>	Dars jarayonida multimedia texnologiyalarining o‘rni	273

## **“MILLIY TA’LIM YARATILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI**

### **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**2023-yil, 26-may.**

Texnik muharrir

Axmedov S.T.

«**Qo‘ldovli yangi obod**» x/**K** matbaa bo‘limida chop etildi.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №30. hajmi 281 bet. Format A5. 2023-yil.